

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 5.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar ushbu shartnoma orqali hamda O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi Qonuniga asosan hal qilinadi.
- 5.2. Neustoyka yoki yetkazilgan zararni to'lash taraflarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yetkazib berishning tegishli davrida tovarlarni yetkazib berishni kechiktirish yoki to'liq yetkazib bermaganlik uchun Sotuvchi Sotib oluvchiga qonunda belgilangan tartibda neustoyka to'laydi.
- 5.3. Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida kelib chiqadigan nizolar Toshkent tumanlararo sudida hal etiladi. Sudga da'vo kiritishdan oldin nizo o'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal qilinadi. Da'vo arizani taqdim etish va ko'rib chiqishda tomonlar «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga amal qiladilar.

VI. FORS-MAJOR HOLATLARI

- 6.1. Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarini bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.
- 6.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarini bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.
- 6.3. Agar fors major holatlari to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, fors major holatlarini boshidan kechirgan tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararni qoplashi shart.

VII. QO'SHIMCHA SHARTLAR

- 7.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.
- 7.2. Shartnoma taraflaridan hech biri boshqa tomonning roziligisiz ushbu shartnoma bilan bog'liq huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxsga berishga haqli emas.
- 7.3. Mazkur shartnoma tomonlar imzolanganidan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr qadar amal qiladi.
- 7.4. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy xisoblanadi.
- 7.5. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuvi bilan, bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor qilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.
- 7.6. Hisob-Shartnoma 2 nushada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nushadan beriladi.
- 7.7. Taraflarning manzili yoki xisob raqamlari o'zgarigan xollarda ushbu o'zgarish to'g'risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi.

VIII. TARAFLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

SOTUVCHI:
OOO «ASIA PHARM LYUKS»
Manzil: Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Raximbabaeva ko'chasi, 4-b
Telefon: 98 888-88-76
X/R: 2020 8000 4007 8405 6001
AIKB IPAK YULI Chilonzor filiali, Toshkent sh
MFO: 01067
INN: 304 961 369 OKED: 46460
Rahbar
Zaxriddinov K.A.

SOTIB OLUVCHI: *Мухомедов Шухрат Ш.Б.*
PK: 401422860082327073101054001.
Маъмурий баъи Шовкет
УФДО: 00014
УНН: 201057326
ОЧКОН: 91511
Рахмонов Ш.Р. Азизов

IX. YURIDIK XULOSA

Ushbu shartnomada ko'rsatilgan taraflarning javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi amaldagi qonunchilik talablariga shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida» gi Qonuniga asosan to'g'ri tuzilgan.

Yuriskonsult _____

Yuriskonsult _____